

## THE ROLE OF MILITARY SERVICE VALUES IN INCREASING THE PATRIOTISM OF MILITARY PERSONNEL

**Yuldashev Olim Sheraliyevich**

*Senior Teacher of the Academy  
Armed Forces of the Republic of Uzbekistan*

**Abstract.** The article presents thoughts and opinions on the historical roots of our national military heritage, the values of military service, the main directions of their formation in modern conditions, and issues of nurturing the patriotic spirit of military personnel.

**Key words:** bravery and courage, values of military service, military service, social and legal, spiritual and ethical, professional and ethical, spiritual and ethical, social values, military and professional activity.

## РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ ВОЕННОЙ СЛУЖБЫ В ПОВЫШЕНИИ ПАТРИОТИЗМА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

**Юлдашев Олим Шералиевич**

*Старший преподаватель Академии  
Вооруженных Сил Республики Узбекистан*

**Аннотация.** В статье изложены мысли и мнения об исторических корнях нашего национального военного наследия, ценностях военной службы, основных направлениях их формирования в современных условиях, вопросах воспитания патриотического духа военнослужащих.

**Ключевые слова:** храбрость и мужество, ценности военной службы, военная служба, социально-правовая, духовно-этическая, профессионально-этическая, духовно-этическая, социальные ценности, военно-профессиональная деятельность.

## HARBIY XIZMATCHILARNING VATANPARVARLIGINI OSHIRISHDA HARBIY XIZMAT QADRIYATLARINING O'RNI

**Yuldashev Olim Sheraliyevich**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar  
Akademiyasining katta katta o'qituvchisi*

*“Podshoh hukmi joriy etilishi darkor. Biron kimsa garchi hukmni zararli deb bilgan bo‘lsa ham, unga monelik qilolmasin<sup>1</sup>”.*

*A.Temur*

**Annotatsiya.** Maqolada milliy harbiy merosimizning tarixiy ildizlari, harbiy xizmat qadriyatlarini, ularning zamonaviy sharoitlarda shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari hamda harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik ruhini yuksaltirishga doir masalalar to‘g‘risida fikr va mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mardlik va jasorat, harbiy xizmat qadriyatlarini, harbiy xizmat, ijtimoiy-huquqiy, ma‘naviy-axloqiy, kasbiy-axloqiy, ma‘naviy-axloqiy, ijtimoiy qadriyatlar, harbiy kasbiy faoliyat.

Dunyoning turli nuqtalarida ro‘y berayotgan qurolli mojarolar, inson qalbi va ongini egallash uchun olib borilayotgan mafkuraviy kurashlar avj olayotgan hozirgi davrda mamlakatimiz mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va xalqimizning tinch va osoyishta hayotini haqiqiy himoyachisi bo‘lgan harbiy xizmatchilarimizda harbiy xizmatchilarda mardlik va jasorat ruhini yuksaltirishning yangi mexanizmlarini yaratish, boy merosimiz, rang-barang va yuksak madaniyatimiz, urf-odat va an‘analarimizni bilishi va hayotga tadbiq etishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqimiz boy tarixiy, madaniy va ma‘naviy merosga ega bo‘lib, ularni o‘rganish milliy o‘zligimizni anglash, ulardan samarali foydalanish fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat barpo etish, milliy iftixor va milliy ruh hamda qadriyatlarimizni yuksaltirishning asosi hisoblanadi<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoev tomonidan shaxsiy tarkibning ahloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish hamda ularda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash bo‘yicha yagona yondashuvni joriy etish bo‘yicha tegishli vazifalar belgilangan. Bunda barcha bo‘g‘indagi komandir va boshliqlarning asosiy faoliyatini harbiy xizmatchilarning ahloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirishga safarbar

---

<sup>1</sup> Темур тузуклари. – Тошкент: Шарқ. 2018. – 144 б.

<sup>2</sup> Шохакимов А.Р. Процессы повышения национального духа в понимании национальной идентичности. "Экономика и социум" №11(90)-2 2021 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 686с

etish, buyuk tariximiz, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' ajdodlarimizning sarkardalik mahorati va dunyo harbiy san'ati rivojiga qo'shgan hissasi hamda qo'shin lashkarboshilarining sadoqati va mardligini, harbiy qadriyatlarning o'rni va rolini shaxsiy tarkib o'rtasida keng targ'ib etish, harbiy xizmatchilarning ongu shuuriga **yuksak jangovar ruh-askarning yengilmas kuchi, armiyaning qudrati**<sup>3</sup> ekanligini chuqur singdirish, ularda turli og'ir va murakkab sharoitlarga nisbatan bardoshlilikni va yuqori professionallikni ta'minlash bo'yicha amaliy ishlar g'ayotga tadbiq etilmoqda. Chunki, zamonaviy qurolli mojarolar tahlilidan kelib chiqib, ishonch bilan aytish mumkinki, jang natijasi nafaqat zamonaviy qurol-yaroq va harbiy texnika, moddiy ta'minot turlari bilan ta'minlanganlik darajasiga, balki, jangda ishtirok etayotgan jangchining jangovar ruhiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi"<sup>4</sup>, deb ko'rsatib o'tilgan.

Ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy tarixiy merosi, milliy qaxramonlarimiz, yengilmas sarkardalar, xalqimizning yurt ozodligi uchun jasorat ko'rsatgan mard va jasur o'g'lonlarining avloddan-avlodga o'tib, bugungi kun harbiylari uchun ham fidoyilik va qahramonlik manbai bo'lib kelayotgan harbiy qadriyatlar, an'ana va marosimlarning Qurolli Kuchlar faoliyatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda<sup>5</sup>.

Komandirlar va boshliqlar tomonidan harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda milliy armiyamizda mavjud bo'lgan, ulug' ajdodlarimizning qahramonona tajribasini o'ziga jo etgan harbiy merosini chuqur bilish, ularni rivojlantirish va shaxsiy tarkib orasida keng targ'ib etish Qurolli Kuchlarimizning shonli an'alarini bardavomligini ta'minlaydi.

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 2024. <http://.googie.com/search.old.xs.uz/indeks.php/hon>.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 й.

<sup>5</sup> Negmatov B.M. O'zbekistonda harbiy ishlar tarixidan lavhalar. –Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2010. – 76 b.

Harbiy xizmatchilar faoliyatining hozirgi sharoitida ular bajaradigan ishning muvaffaqiyati, harbiy xizmatchilarning birgalikda bajaradigan mehnatning samaradorligi, jamoadagi psixologik muhit ko'p jihatdan o'z harakatlarini boshqara olish, his-tuyg'ularini jilovlay olish, kayfiyatini nazorat qila olish, vaziyatning va atrofda gilarining talablari bilan hisoblashish qobiliyatiga bog'liq<sup>6</sup>.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi harbiy faoliyatda ham harbiy xizmatchilar, harbiy jamoalarning hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ma'naviy-ahloqiy omillar belgilab beradi. Kundalik faoliyatda va ayniqsa harbiy harakatlar paytida ular harbiy xizmatchilarning o'z xatti-harakatlarini tartibga soluvchi vositadir.

Qadim zamonlardan boshlab yurtimizda armiyaga bo'lgan hurmat va e'tibor harbiy xizmatchilar tomonidan doimo qadrlanib kelingan, shu tariqa ularda rozilik va harbiy xizmatga bo'lgan qiziqish ortib borgan.

Harbiy xizmat qadriyatlarining harbiy faoliyatdagi *ahamiyati* quyidagilarda namoyon bo'ladi:

*birinchidan*, zamonaviy dunyoda harbiy-siyosiy voqealarning rivojlanishi, ularning tendensiyalari va dinamikasi ko'p jihatdan armiyaning jamiyatda qanday imidjga ega bo'lishiga, harbiy-kasbiy yo'nalishning qanday tashkil etilishiga, yosh avlodning harbiy xizmatga munosabatini shakllantirish va ularni kelajakda harbiy faoliyatga jalb qilishga bog'liq bo'ladi;

*ikkinchidan*, harbiy xizmat o'tashning ijtimoiy-huquqiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini ishlab chiqish zarurati, ayrim shaxslarda harbiy xizmatga nisbatan salbiy munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirish;

*uchinchidan*, Qurolli Kuchlarni kadrlar bilan ta'minlash, jamiyat a'zolari orasida harbiy xizmatning ijtimoiy zaruratini anglab yetishlariga ko'maklashish va armiyaga nisbatan ijobiy fikrni shakllantirish;

---

<sup>6</sup> Egamov E.E. Харбий хизматчиларда ҳиссий-иродавий фазилатларини шакллантиришнинг аҳамияти. *Journal of new century innovations* <http://www.newjournal.org/> Volume-42\_I ssue-2\_December\_2023

*to‘rtinchidan*, harbiy xizmatchilarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini mustahkamlash;

*beshinchidan*, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda Qurolli Kuchlarni kam sonli, ixcham bo‘lishi bilan bog‘liq holda harbiy xizmat nufuzini yoshlarning harbiy-kasbiy yo‘nalishiga ta’sir etuvchi murakkab omil sifatida baholanmaslik zarurati<sup>7</sup>.

**Harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda harbiy xizmat qadriyatlarining vazifalari:**

harbiy xizmatchilarni jamiyatning kasbiy-axloqiy fazilatlarga qo‘yadigan talablarini bilish, harbiy xizmatning ijtimoiy ahamiyatini tushunish bilan qurollantirish; harbiy xizmatchilarda Vatanni himoya qilishga ma’naviy tayyorlik, harbiy burchni bajarish, o‘z xalqiga sadoqat fazilatlarini mustahkamlash; harbiy xizmatchilarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlar talablariga, xalqaro gumanitar va huquqiy normalarga hurmat ruhida tarbiyalash; ongli harbiy intizom, hushyorlik, or-nomus va qadr-qimmat tuyg‘usini, O‘zbekiston Qurolli Kuchlariga mansubligidan g‘ururlanishni tarbiyalash; harbiy jamoalarda do‘stlik, hamjihatlik, o‘zaro yordam va o‘zaro javobgarlik muhitini yaratish; harbiy xizmatchilarning ma’naviy kamolotida uzluksizlikni ta’minlash, kadrlarni ma’naviy tarbiyalashda milliy an’analarni tiklash, rivojlantirish va tasdiqlash; harbiy xizmatchilarda ijobiy axloqiy idealga intilish zaruratini rag‘batlantirish; tarbiyaviy ta’sirlarning moslashuvchanligi va dolzarbligi, ularni erishilgan ma’naviy yetuklik darajasiga va harbiy xizmatchilarning o‘z borayotgan axloqiy ehtiyojlariga muvofiq takomillashtirish; tarbiyaning yuksak tuyg‘ularni, mas’uliyatni, g‘ururni, jasoratni uyg‘otadigan ilg‘or usullaridan foydalanishdan iborat.

Harbiy xizmat qadriyatlarini, ularning zamonaviy sharoitlarda shakllantirishning asosiy yo‘nalishlarini har tomonlama tahlil qilish bizga bir qator umumlashtirilgan **xulosalar** chiqarish imkonini beradi.

---

<sup>7</sup> Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati/ Sh.To‘raev.- Toshkent “Sano-standart” nashriyoti. 2013. 304 bet.

Harbiy xizmat qadriyatlari o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘ziga xos ijtimoiy qadriyatlar sifatida namoyon bo‘lib, jamiyat va armiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar dialektikasini, harbiy xizmatning tabiati va mazmunini, uning jamiyat tomonidan tan olinishi, baholanishi va rag‘batlantirilishini aks ettiradi. Harbiy xizmat qadriyatlari harbiy kasbiy faoliyatning mohiyati va tabiati bilan belgilanadigan ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Шохакимов А.Р. Процессы повышения национального духа в понимании национальной идентичности. "Экономика и социум" №11(90)-2021 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 686с.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va 3. Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 2024. <http://.googie.com/search>. old.xs.uz/indeks.php/hon.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 й.
5. Темур тузуклари. – Тошкент: Шарқ. 2018. – 144 б.
6. Negmatov B.M. O‘zbekistonda harbiy ishlar tarixidan lavhalar. –Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2010. – 76 b.
7. Egamov E.E. Харбий хизматчиларда ҳиссий-иродавий фазилатларини шакллантиришнинг аҳамияти. *Journal of new century innovations* <http://www.newjournal.org/> Volume–42\_Issue-2\_December\_2023
8. Armiya – davlat tayanchi, tinchlik kafolati/ Sh.To‘raev.- Toshkent “Sano-standart” nashriyoti. 2013. 304 bet.